

## O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026-yil yanvar-fevral

- I. Sanoat ishlab chiqarishi
- II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- III. Bajarilgan qurilish ishlari
- IV. Chakana savdo tovar aylanmasi
- V. Tashqi savdo aylanmasi
- VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- VII. Korxonalar va tashkilotlar soni



### I. Sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan **175 005,5** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,7 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **83,8 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **7,5 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **8,1 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,6 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,8 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **4,8 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **9,4 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **11,2 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish hajmining oshishi (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,9 b.**), shuningdek, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi o'sish (**2,2 b.**) sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **88,9 %**), shuningdek, charm va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishda ham (**81,5 %**) hajmlarning pasayishi kuzatildi.



### II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026-yil yanvar-fevral oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **1,3 %** ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **1,7 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **0,72** foiz punkt (f.p.) ta'sir qilgan bo'lsa, noziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **0,7 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichga **0,21** f.p. ta'sir qilgan, xizmatlar esa **1,4 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni **0,36** f.p. oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

2025-yil dekabriga kelib IKI yuqori chegarasi **141,2 %** ni ("Sug'urta va moliyaviy xizmatlar"), quyi chegarasi esa **100,2 %** ni ("Ta'lim sohasidagi xizmatlar") tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-fevral oylarida yig'ma iste'mol narxlari indeksining o'sishiga eng katta hissani "Oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar" bo'limidagi narx o'zgarishlari qo'shdi (umumiy ta'sirning **53,5 %** i). "Sug'urta va moliyaviy xizmatlar" bo'limida narxlarning oshishi hisobiga yig'ma iste'mol narxlari indeksi yana **0,12** f.p. ga ko'tarildi (umumiy ta'sirning **9,3 %** i). "Uy-joy, kommunal xizmatlar, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa yoqilg'i turlari", "Transport" hamda "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovar va xizmatlar" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari

umumiy ko'rsatkichni yana **0,25** f.p. ga oshirdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri sezilarli darajada bo'lmadi.



### III. Bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida **29 177,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,6 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **6 371,5** mlrd so'mi yoki **21,8 %** yirik korxonalar va tashkilotlar tomonidan, **14 446,9** mlrd so'mi yoki **49,5 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **8 358,7** mlrd so'mi yoki **28,7 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



### IV. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **69 879,4** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,4 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **29,7 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **18,9 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **12,6 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **69,5 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **11,6 %** ulush bilan **8 138,3** mlrd so'mni tashkil etdi.



### V. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **11 605,1** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **767,4** mln AQSh dollariga yoki **7,1 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **3 546,8** mln AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,4 %** ga tushdi. Import **8 058,3** mln AQSh dollariga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,8 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **59,1 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **18,1 %**, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **9,9 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **9,6 %** va har xil tayyor mahsulotlar – **8,5 %** bo'ldi.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**36,1 %**), sanoat tovarlari (**14,3 %**), shuningdek, kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**11,9 %**) tashkil etdi.



### VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **168 182,9** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,4 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarining **20,8 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri **3,6** f.p.), savdo xizmatlari **19,8 %** ga (o'sishdagi ta'siri **3,0** f.p.), yashash va ovqatlanish xizmatlari **14,9 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,7** f.p.), transport xizmatlari **8,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,7** f.p.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **17,7 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,5** f.p.), ta'lim sohasidagi xizmatlar **21,2 %** ga (o'sishdagi ta'siri **0,8** f.p.) shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **15,5 %** ga (o'sishdagi ta'siri **0,4** f.p.) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**31 562,9** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,9 %** ga yetdi), transport xizmatlari (**31 505,5** mlrd so'm, **108,3 %**), moliyaviy xizmatlar (**29 825,0** mlrd so'm, **120,8 %**) va savdo xizmatlari (**26 348,2** mlrd so'm, **119,8 %**) ga to'g'ri keladi.



## VII. Korxonalar va tashkilotlar soni

2026-yil 1-mart holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **486,4** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **415,1** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (**111 074** ta), Toshkent (**47 685** ta), Samarqand (**42 419** ta), Farg'ona (**38 535** ta), Qashqadaryo (**31 073** ta), Buxoro (**29 530** ta) va Xorazm (**27 729** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **156 796** ta, sanoat sohasida – **61 062** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **36 728** ta, qurilish sohasida – **31 372** ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **31 350** tani tashkil etdi.

2026-yil yanvar-fevral oyida respublikada **14,8** mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **14,6** mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **18 770** tani tashkil etdi. Ularning **4 365** tasi qo'shma korxonalar va **14 405** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:  
Statistika ma'lumotlarini  
muvofiqlashtirish va tarqatish  
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63  
Kontaktlar: [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)  
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

